



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 5-son

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston
matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda
1140-sonli guvohnoma bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent
davlat yuridik universitetiga tegishli.
Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal
materiallaridan foydalanish, tarqatish
va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan
amalg oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.10.2024-yilda bosmaxonaga
topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 12 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 152.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy
boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili
va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori
(Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori
(Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi
huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi
(Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik
fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию
24.10.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 12. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 152.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
legal scientific and practical journal
was registered by the Press and Infor-
mation Agency of Uzbekistan on De-
cember 22, 2020 with certificate No.
1140.

The journal is included in
the list of journals of the Higher
Attestation Commission under the
Ministry of Higher Education, Science
and Innovations of the Republic of
Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent
State University of Law. All rights re-
served. Use, distribution and reproduc-
tion of journal materials are carried
out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

The journal is submitted to the Printing
house on 24.10.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p. 12. Unit: 100.
Order: 152.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of
Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate
Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and
Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy
in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law
(Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk,
Poland)

A. Khoshimxonov – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law
(Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World
Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of
Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ODILQORIYEV HOJIMUROD TO'XTAMURODOVICH**
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylilikni ta'minlashdagi roli va ahamiyati

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 19 **XUDAYBERGENOV BEXZOD BAXTIYOROVICH**
Qurilish pudrati shartnomasining huquqiy tabiati bilan bog'liq xorijiy davlatlar qonunchiligi
28 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA XODJIAKBAROVNA**
Oilada mulkiy nizolarni sudgacha hal etishning alternativ vositasi sifatida oilaviy huquqiy shartnomalarning yuridik tabiati

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOY TA'MINOT HUQUQI

- 40 **RAXIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**
Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipining ayrim jihatlar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**
Yaroqli va yaroqsiz jinoyatga suiqasd qilish
70 **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**
Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 78 **ALISHAYEV SOBIR TURSUNBOYEVICH**
Sun'iy intellekt va tahliliy tizimlarni hukm chiqarishda qo'llash: istiqbollar va muammolar
92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**
Qalbakilashtirilgan hujjatlarni va qimmatli qog'ozlarni aniqlashda e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihatlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 ОДИЛКОРИЕВ ХОДЖИМУРОД ТУХТАМУРДОВИЧ

Роль и значение Конституционного суда Республики Узбекистан в обеспечении конституционной законности в стране

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

19 ХУДАЙБЕРГЕНОВ БЕХЗОД БАХТИЁРОВИЧ

Законодательство зарубежных государств относительно правовой природы договора строительного подряда

28 САЙДИВАЛИЕВА ХУРШИДА ХОДЖИАКБАРОВНА

Правовая природа семейно-правового договора как альтернативное средство разрешения семейных имущественных споров до суда

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

40 РАХИМОВ МИРЁКУБ АКТАМОВИЧ

Некоторые аспекты принципа запрещения дискриминации в сфере труда и занятий

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

54 КАМАЛОВА ДИЛДОРА ГАЙРАТОВНА

Годное и негодное покушение на преступление

70 ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМ КИЗИ

Правовые аспекты обеспечения безопасности персональных данных в сфере здравоохранения

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

78 АЛИШАЕВ СОБИР ТУРСУНБОЕВИЧ

Применение искусственного интеллекта и аналитических систем при вынесении приговора: перспективы и вызовы

92 ШОНАЗАРОВ АБДУВАЛИ ШОНАЗАРОВИЧ

Аспекты, которые необходимо учитывать при обнаружении поддельных документов и ценных бумаг

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

8 **ODILQORIEV KHOJIMUROD TUKHTAMURODOVICH**

Role and significance of the Constitutional court of the Republic of Uzbekistan in ensuring constitutional legality in the country

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW.
INTERNATIONAL PRIVATE LAW

19 **KHUDAYBERGENOV BEHZOD BAKHTIYOROVICH**

Legislation of foreign countries on the legal nature of the construction contract

28 **SAYDIVALIEVA KHURSHIDA KHODJIABBAROVNA**

The legal nature of family-legal contracts as an alternative means of pre-trial solution of property dispute in the family

12.00.05 – LABOR LAW. THE LAW OF SOCIAL SECURITY

40 **RAKHIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Some aspects of the principle of prohibition of discrimination in the field of work and training

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY.
CRIMINAL PROCEDURAL LAW

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Viable and unviable attempt to commit a crime

70 **YUSUPOVA FARINGIZ UKTAM KIZI**

Legal aspects of ensuring the security of personal data in the field of healthcare

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC
EXPERTISE

78 **ALISHAEV SOBIR TURSUNBOEVICH**

Application of artificial intelligence and analytical systems for sentencing: prospects and challenges

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Aspects to consider when detecting fake documents and securities

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.10.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.10.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5./BSNG6231

UDC: 347.61(045)(575.1)

OILADA MULKIY NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISHNING ALTERNATIV VOSITASI SIFATIDA OILAVIY HUQUQIY SHARTNOMALARNING YURIDIK TABIATI

Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti bo'limi boshlig'i,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ORCID: 0000-0002-3892-8555

e-mail: akbarova1982@inbox.ru

Annotatsiya. Maqolada oilaviy nizolar va ularni oila a'zolari tomonidan hal etishning ijtimoiy-huquqiy jihatlariga ahamiyat qaratiladi. Muallif oilaviy nizolar kundan kunga ko'payib, mulkiy nizolarning sud jarayonlarida hal qilinishi uzoq muddat davom etishiga sabab bo'layotgan masalalarni tahlil qiladi. Sudgacha bo'lgan jarayonda oilada mulkiy nizolarni hal qilishning muqobil vositasi hisoblangan oilaviy-huquqiy shartnomaning huquqiy tabiati ko'rib chiqiladi. Muallif oilaviy huquqiy shartnoma er va xotin o'rtasidagi umumiy mulkni taqsimlash, aliment to'lash majburiyatlari va boshqa mulkiy masalalar bo'yicha nizolarni hal etishda samarali vosita ekanligiga e'tibor qaratadi. Maqolada bu kabi shartnomalarni tuzishning asosiy huquqiy jihatlari, ularning majburiy yozma shakli, amal qilish shartlari va mazmuniga qo'yiladigan talablar tahlil qilinadi. Oilaviy-huquqiy shartnomalar asosida vujudga keladigan majburiyatlarning bajarilishi kafolatlari, ularning oilaviy huquqiy munosabatlardagi barcha ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Bunday shartnomalarning sudlar tomonidan tan olinishi va ularni ijro etish sohasidagi huquqni qo'llash amaliyoti masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Muallif, shuningdek, aholi o'rtasida sotsiologik so'rov o'tkazib, fuqarolarning oilaviy-huquqiy shartnomalarga nisbatan munosabati va bu mexanizmdan amalda foydalanishga tayyorligini aniqladi. So'rov ma'lumotlari asosida fuqarolarning nizolarni shartnoma asosida hal qilishning huquqiy imkoniyatlaridan qanchalik xabardorligini namoyon etuvchi tahliliy ma'lumot taqdim etildi. Muallif oilaviy-huquqiy shartnoma fuqarolik va oila huquqining muhim elementi ekanligi hamda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga yordam berishini hisobga olib, mulkni taqsimlashda er-xotinning manfaatlarini muvozanatini ta'minlashi mumkin, degan xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: huquq, majburiyat, nizo, shartnoma, mulk, oilaviy-huquqiy munosabatlar, kelishuv, sud, aliment, mulkni taqsimlash

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СЕМЕЙНО-ПРАВОВОГО ДОГОВОРА КАК АЛЬТЕРНАТИВНОЕ СРЕДСТВО РАЗРЕШЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ИМУЩЕСТВЕННЫХ СПОРОВ ДО СУДА

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

доцент, заведующая отделом Научно-исследовательского
института «Семья и гендер» при Комитете семьи и женщин

Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассмотрено понятие семейных споров и социально-правовые аспекты разрешения семейных споров между членами семьи. Автор анализирует проблемы, из-за которых семейные конфликты с каждым днём увеличиваются, а разрешение имущественных споров в судебном порядке занимает длительное время. Рассматривается правовая природа семейно-правового договора, который считается альтернативным средством разрешения имущественных семейных споров в досудебном процессе. Автор обращает внимание на то, что семейно-правовой договор является эффективным инструментом разрешения споров между мужем и женой по поводу раздела общего имущества, обязательств по уплате алиментов и других имущественных вопросов. В статье анализируются основные правовые аспекты заключения таких договоров, требования к их обязательной письменной форме, срокам действия и содержанию. Также рассмотрены гарантии по обязательствам, возникающим на основании семейно-правовых договоров, и их значение в обеспечении прав и интересов всех участников семейных правоотношений. Особое внимание уделено вопросам правоприменительной практики в сфере признания таких договоров судами и их исполнения. Автором проведён социологический опрос среди населения, таким образом определено отношение граждан к семейно-правовым договорам и их готовность использовать этот механизм на практике. На основе данных опроса представлена аналитическая информация, показывающая, насколько граждане осведомлены о правовых возможностях разрешения споров на основании договора. Автор приходит к выводу, что семейно-правовой договор является важным элементом гражданского и семейного права и может способствовать разрешению споров мирным путём, а также сбалансировать интересы супругов при разделе имущества.

Ключевые слова: право, обязанность, конфликт, договор, имущество, семейно-правовые отношения, договор, суд, алименты, раздел имущества

THE LEGAL NATURE OF FAMILY-LEGAL CONTRACTS AS AN ALTERNATIVE MEANS OF PRE-TRIAL SOLUTION OF PROPERTY DISPUTE IN THE FAMILY

Saydivalieva Khurshida Khodjiakbarovna,

Head of the Department of Research Institute "Family and Gender"
under the Committee of Family and Women of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Law (PhD), Associate Professor

Abstract. The article focuses on the concept of family disputes and the socio-legal aspects of resolving family disputes by family members. The author analyzes issues that are causing family disputes to increase day by day, and the resolution of property disputes in court proceedings continues for a long time. In the pre-trial process, the legal nature of the family-legal contract, which is an alternative means of resolving property disputes in the family, is considered. The author draws attention to the fact that the family law agreement is an effective means of resolving disputes between husband and wife regarding the distribution of common property, obligations to pay alimony, and other property issues. The article analyzes the main legal aspects of concluding such contracts, their mandatory written form, conditions of operation and requirements for their content. Guarantees of fulfillment of obligations arising from family law agreements and their significance in ensuring the rights and interests of all participants in family law relations will also be considered. Special attention will be paid to the issues of recognition of such contracts by the courts and law enforcement practice in the field of their enforcement. The author also conducted a sociological survey among the population to determine the attitude of citizens towards family law agreements and their readiness to use this mechanism in practice. Based on the survey data, analytical information is provided that shows how well citizens are aware of the legal possibilities of resolving disputes on a contractual basis. The author concludes that the family law agreement is an important element of civil and family law and can help to resolve disputes peacefully, as well as ensure the balance of interests of spouses in the distribution of property.

Keywords: right, obligation, dispute, contract, property, family-legal relations, agreement, court, alimony, division of property

Kirish

Oilaning tinch, oila a'zolarining o'zaro bir-birlariga mehr-oqibatli, murosali bo'lishi, hurmat va e'tiborni saqlab qolishi, shuningdek, kelajak avlodni tarbiya qilishida oiladagi sog'lom muhit birlamchi zarurat hisoblanadi. Oilalarda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitning ta'minlanishi va oila a'zolarining bir-birlariga o'zaro ijobiy his-tuyg'ular asosida munosabatda bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi omillar mavjudki, ularni bartaraf etishda muqobil usullarni qo'llash zarurati vujudga kelmoqda.

O'zbek jamiyatida oilaviy munosabatlar o'ziga xos xususiyatlarga egaki, unda an'ana va madaniyat aks etgan. Jamoaviylik prinsiplarini saqlab kelayotgan milliy o'zbek oilasining qiyofasida qaynota va qaynona, er va xotin, farzandlar, shuningdek, ovsinlar, qaynopa, qaynsingil va qaynaka va qaynukalar o'z-o'zidan amma, xola, tog'a hamda amakilardan tashkil topgan jamoaning o'rne bor. Zero, o'zbek jamiyati uchun bunday ko'rinishdagi ahil va farovon jamoaviy oila qiyofasi doimio rag'batlantirilib, obro'-e'tibor qozonib kelgan. Milliy o'zbek oilasini juda kam holatlarda faqat er va xotin ko'rinishida ko'ramiz. Mana shu xususiyatlarning mavjudligi bizni o'zbek oilasidagi hurmat, mehr-oqibat, hayo, insof va diyonat xislatlarining uzviy davomiyligini saqlashga undaydi. Qarindosh-urug'chilik munosabatlarini kengaytirib, o'ziga xos ijtimoiylashuv ko'rinishlarini namoyon qiladi.

Bugungi kunga kelib, mazkur an'anaviy ko'rinishdagi oila modelidan yangi oila modeliga o'tish, oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi jarayoni kuzatilmoqda. Bunga bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda, jumladan, bozor iqtisodiyoti tamoyillari va talablari, mehnat migratsiyasi, iqtisodiy integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy etishi va global Internet tarmog'ining keng tarqalishi kabilar.

Bu, o'z navbatida, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirini o'tkazib, shaxslararo munosabatlarning mazmun-mohiyatini ham o'zgartirib bormoqda. O'zbek oilasining

an'anaviy modeli oilaviy munosabatlar subyektlarining o'zaro ishonch va tushunish, hayo va mehr-oqibat rishtalari bilan bog'langanlikni talab etgan bo'lsa, bugunga kelib uning o'rnini individuallik, mustaqillik hamda o'zaro manfaatdorlik tamoyillari egallay boshlamoqda.

Material va metodlar

Tadqiqotda oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy nizolarni sudga murojaat qilmasdan hal qilishning muqobil mexanizmi sifatida oilaviy-huquqiy shartnomaning huquqiy mohiyati o'rganiladi hamda bunday kelishuvlardan foydalanishning afzalliklari, jumladan, ularning moslashuvchanligi, samaradorligi va oilaviy munosabatlardagi nizolarni kamaytirish tahlil qilinadi. Oilaviy-huquqiy shartnoma taraflarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga ko'maklashish va sud-huquq tizimini yengillashtirish, shu bilan birga, er-xotinlarning huquqiy madaniyatini mustahkamlashning samarali usuli ekanligi ochib beriladi va takliflar keltiriladi.

Ushbu tadqiqotda sotsiologik so'rov usulidan, ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy usullaridan, statistik o'rganish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Oilaviy nizolar o'zi nima, ularni hal etishda alternativ vositalar deganda nimani tushunishimiz lozim? Ushbu masalani mazkur maqolada yoritishni maqsad qilib oldik.

Oilalarning hayoti turli xil obyektiv va subyektiv omillarga duchor bo'lib, ular tarix, iqtisodiyot, sotsiologiya, psixologiya, huquqshunoslik kabi fanlarning turli sohalarida batafsil o'rganiladi.

Ijtimoiy hayotda, shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o'zaro kelishmovchiliklar bo'lib turishi muqarrar. Odatda nizo deb qarama-qarshi yo'nalgan qarashlarga, noxush hissiy kechinmalar bilan bog'liq guruhlararo yoki shaxslararo munosabatlar orqali ifodalanuvchi to'qnashuvlarga aytiladi [1; 2]. Psixologik nuqtayi nazardan talqin

etilganda, odamlarga halokatli ta'sir etadigan jihat nizolarning o'zi emas, balki ularning oqibati hisoblanadi. Nizolar oqibatida inson ruhiyatida qo'rquv, vahima va adovat kabi salbiy hislar yuzaga keladi. Agar mazkur kechinmalar kuchli bo'lsa va uzoq muddat davom etsa, odamda himoya reaksiyasi paydo bo'lishi va mustahkamlanishi mumkin. Nizo natijasidagi salbiy holatlar shaxsning hissiyoti, xatti-harakatlari, tafakkur va hatto xarakterida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'lib, mazkur subyekt qatnashayotgan boshqa vaziyatlarga ham tarqaladi va o'zaro munosabatlarning keng sohalarini egallay boshlaydi. Masalan, qo'rquv va xavf muhitida tarbiyalangan odam keyinchalik xuddi shunday muhitning manbayiga aylanishi ehtimoldan xoli emas. U hatto o'z bolalarini ham shunday muhitda tarbiyalaydi yoki oilani ham ana shu uslubda boshqaradi.

Oilaviy nizolar odatda bir-birini tinglamaslik, ya'ni bir-birlarining istaklariga quloq solmaslik, hayotga bo'lgan qarashlarning farqlanishi, o'ta qattiq nazorat, e'tibor yetishmasligi va ish faoliyatidagi muammolar tufayli yuzaga keladi [3]. Afsuski, barcha oila ham ota-ona va ular dunyoga keltirgan farzandlar bilan to'liq bo'lavermaydi. Taqdir taqozosi bilan ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibatida nikoh barbod bo'ladi. Olimlar nikohning barbod bo'lishini o'rganib, uning sabablari turlicha bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'z nazariy qarashlarini bayon etganlar. Masalan, ayrim psixologlar ajrashishlarni turtki konsepsiyasi orqali tushuntirishga urinadilar. Ya'ni yaxshi tinch-totuv yashayotgan oilada birdan shunday holat yuz beradiki, masalan, xiyonat, o'lim, xastalik, rashk va shunga o'xshash voqealar turtki bo'ladi-yu, oila ustuni qulaydi. Aslida hayotda qo'qqisdan shunday bir silkinish yoki turtki bilan oila birdan buzilib ketish holatlari kam uchraydi [4]. Yana bir holat – olimlar fikricha, bu "orqaga ketish" deb nomlanadi. Bu shunday holatki, unga ko'ra, er va xotinni yaxshi,

iliq munosabatlar bog'lab turgan, lekin aynan muhabbat birdan sovib, er-xotin bir-birini ko'rsa g'ashi keladigan, gaplari yoqmaydigan, nizokash bo'lib qoladi. Bunday voqealar hayotda tez-tez uchraydi. Sababi birdan yongan olov, ya'ni muhabbat, ma'lum vaqt o'tgach o'chishi, so'nib qolishi mumkin [5].

Zamonaviy fanda huquqiy konfliktologiya sohasidagi yutuqlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq muammolarni, shuningdek, ularning oldini olish va hal qilish usullarini o'rganishni o'z ichiga oladi [6]. Ijtimoiy-huquqiy fanlar, jumladan, huquqshunoslik va ayniqsa, oila huquqi fanining asosiy vazifalaridan biri oiladagi nizolar kelib chiqishining oldini olish va ular yuzaga kelgan taqdirda, ularni muammosiz hal etish imkonini beradigan huquqiy mexanizmni, shu jumladan, hal qilishning muqobil usullarini ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi vaqtda bunday mexanizmni ishlab chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu, birinchidan, maxsus qonunchilik hujjatining qabul qilinishida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, nizolarni hal etishning muqobil tartiblarini nafaqat sud, balki ma'muriy tizimlarga ham faol joriy etadi.

Oilaning ichki hayoti bilan bog'liq har bir oilaviy nizo, birinchi navbatda, oilaning o'zi tomonidan o'zaro kelishuv asosida voyaga yetmagan bolalar, mehnatga layoqatsiz shaxslar, ota-ona yoki boshqa oila a'zolarining huquq va manfaatlari ustuvorligini hisobga olgan holda hal qilinishi mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 10-moddasida "fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar" deb belgilangan. Shuningdek, oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, tashkilotlar va alohida fuqarolarning arala-

shuviga oilaning vujudga kelgan nizo bo'yicha qabul qilgan qarori uning a'zolari, ayniqsa, voyaga yetmaganlar hamda nogironlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga [7] ko'ra, 2024-yil yanvar–iyun oylarida qayd etilgan nikohdan ajrashishlar soni 22,5 ming birlikni tashkil etib, har 1000 kishiga nisbatan olganda 1,2 promille [8]ni namoyon qilgan. Shundan shahar joylarida 13,8 mingtani (61,6 foiz), qishloq joylarida 8,6 mingtani (38,4 foiz) tashkil etdi. Nikohdan ajrashganlarning 46,6 foizi farzandsizlar, 29,4 foizi 1 nafar farzandi borlar, 24,0 foizi esa 2 va undan ko'p bolalilar tashkil etdi. Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi erkaklar uchun 37,1 yoshni, ayollar uchun 32,2 yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo'lgan ajrashayotgan ayollarga to'g'ri kelgan, ya'ni jami nikohdan ajrashganlarning 64,1 foizini tashkil etgan. Hududlar bo'yicha nikohdan ajrashish koeffitsiyentining eng yuqori darajasi Toshkent shahrida – 1,9 promille, Sirdaryo viloyatida – 1,7 promille va Toshkent viloyatida – 1,5 promille, eng kam ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida va Qashqadaryo viloyatlarida 0,9 promilleni tashkil qilgan.

Oilaviy nizo deganda bir oila a'zolari o'rtasida yoki oila a'zosi bilan boshqa shaxs o'rtasida yuzaga keladigan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy xarakterdagi ijtimoiy nizo turi tushuniladi. Agar nizolashayotgan tomonlardan kamida bittasi uning (oila) manfaatlarini haqiqiy yoki xayoliy huquqbuzarliklardan himoya qilish maqsadida oila a'zosi sifatida harakat qilsa, nizo oilaviy nizo sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Shunday qilib, oilaviy nizo tushunchasini belgilaydigan muhim belgilar nizolashayotgan tomonlarning o'ziga xos subyekt tarkibi va nizoning oila manfaatlarini yoki alohida oila a'zolarining, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlar va nogironlar-

ning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi hisoblanadi [9].

Demak, oilaviy nizolar – bir oila a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan, oilaviy hayot va munosabatlarning turli tomonlariga taalluqli nizolar, qarama-qarshiliklar yoki kelishmovchiliklar. Ushbu nizolar oilaviy munosabatlarning turli sohalarini qamrab olishi mumkin. Bular bugungi kunda nikohni bekor qilish va mulkni taqsimlash, vasiylik va bolalarni tarbiya qilish, aliment majburiyatlari, farzandlikka olish va homiylik, meros masalalari ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Oilaviy nizolarni hal qilishning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularning har biri tomonlarning o'ziga xos holatlari va afzalliklariga qarab qo'llanishi mumkin. Bularga muzokaralar va vositachilik, mediatsiya, oilaviy shartnomalar, sud orqali hal etish kabilar kiradi.

Oilaviy nizolarni hal qilishda alternativ vositalarni qo'llash muhim hisoblanadi. Ulardan biri mediatsiya va oilaviy kelishuvlar hisoblanadi. Nizolarni sudgacha muqobil tarzda hal etish oila a'zolariga o'zaro huquq va majburiyatlar yuzasidan manfaatli yechim topishga sabab bo'ladi. Nizolarni hal etishda muqobil usullarning afzalliklari quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Oilaviy masalalarni o'zaro uchinchi shaxslarsiz hal etish imkoniyati: oilaviy kelishuvlar ishtirokchilarga o'z holatlari va ehtiyojlariga mos keladigan shartlar hamda yechimlarni aniqlash imkonini beradi. Shunda tomonlar sud qarorlari bilan solishtirganda natijani ko'proq nazorat qila oladilar.

2. Moslashuvchanlik: oilaviy kelishuvlar sud qarorlariga qaraganda ancha moslashuvchan bo'la oladi. Ular oilaning o'ziga xos sharoitlari va ehtiyojlarini qondirishi, shu bilan birga, o'zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda keyinchalik o'zgartirish uchun imkoniyat berishi mumkin.

3. Shaxsiy munosabatni yaxshilashi mumkin: kelishuvga erishish jarayoni oilalarga nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilish, muloqotni yaxshilash va oila a'zolari o'rtasidagi

munosabatlarni saqlashga yordam beradi. Bu ajrashish yoki boshqa jiddiy oilaviy inqiroz holatlarida, ayniqsa, muhimdir.

4. Vaqt va resurslarni tejash: shartnoma tuzish vaqtni, pulni va hissiy resurslarni tejashga yordam beradi, aks holda, ular uzoq davom etadigan sud ishlariga sarflanishi mumkin. Shuningdek, u sud jarayonlari bilan bog'liq qo'rquv va noaniqlikdan qochishga yordam beradi.

Oilaviy kelishuvlar va mediativ kelishuvlar, garchi oilaviy nizolarni hal qilish jarayonida bir xil kuchga ega bo'lsa-da, ikki xil tushunchadir. Ular o'rtasidagi asosiy farqlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin bo'ladi, jumladan:

oilaviy huquqiy shartnoma – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlar yoki majburiyatlari bo'yicha kelishuvni o'z ichiga olgan hujjat hisoblansa, mediatsiya kelishuvi taraflar tomonidan nizoni hal etish jarayonida ularga yordam beradigan neytral uchinchi shaxs – mediator yordamida erishilgan kelishuv.

Oil a'zolari tomonidan tuzilgan *oilaviy-huquqiy shartnomalar* nafaqat xulq-atvorning individual huquqiy modelini yaratishga qaratilgan, balki proaktiv funksiyaga ega (nizolarning oldini olish funksiyasi), oila a'zolari o'rtasida allaqachon yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilishga qodir va munosabatlardagi keskinlikni yengillashtiradi [10].

Mediatsiya – nizolashayotgan taraflarning muammoni o'zlari uchun maqbul va samaraliroq usulda hal etish yo'li. Oilaviy nizolarni mediatsiya tartib-taomili asosida hal etishning eng muhim jihatlaridan biri – taraflarga barcha sohalarida yengillik berish bilan birga, sudlarda ish hajmining kamayishiga olib keladi [11].

O'zbekistonda amaliyotda oilaviy huquqiy shartnomalar tuzish hamda u orqali oilaviy munosabatlarni tartibga solish kam uchraydi. Oilaviy shartnomalar kam xarakterli bo'lishining bir qancha sabablarini quyidagilar bilan bog'lash mumkin, deb hisoblaymiz.

Madaniy va an'anaviy me'yorlar. O'zbekistonda oilaviy munosabatlar ko'pincha an'anaviy qadriyatlar va madaniy me'yorlar bilan belgilanadi, ular er va xotin o'rtasidagi individual kelishuvlarga emas, axloqiy me'yorlarga tayanadi. Umuman olganda, oilaviy munosabatlarda huquq normasi yoki shartnomaviy majburiyatlardan ko'ra axloqiy normalar ustuvorlik kasb etadi.

Xabardorlikning yo'qligi yoki bu boradagi targ'ibot ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi. Ko'pgina oilalar nikoh shartnomasi yoki boshqa oilaviy shartnomalarni tuzish imkoniyati yoki bunday kelishuvlar ularning oilaviy ishlarini boshqarishda qanday yordam berishi mumkinligini to'liq anglamaydilar, uning nizolarni hal etishning muqobil usuli ekani haqida bilimga ega emaslar, shuningdek, bu boradagi targ'ibot ishlarida nikoh shartnomasi nikohni bekor qilish paytida hal etiladigan holat deb qaraladi.

Oilaviy munosabatlarda er va xotinning mulkiy huquqlari masalasi oilaviy nizolarning eng ko'p tortishuvli va hal bo'lishi uzoq choziladigan nizo turlaridan biri hisoblanadi. Er va xotin nikoh davrida oilaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli shakldagi mulkka ega bo'lishi mumkin. Mazkur mol-mulkni er va xotin nikoh davrida umumiy asosda tasarruf etadi va foydalanib keladi. Mazkur mol-mulkni bo'lish masalasi nikohdan ajralish paytida dolzarblashadi hamda er va xotin uchun yanada muhimroq ahamiyat kasb etib, uning yuridik rejimini aniqlash zarurati vujudga keladi.

Mulkni taqsimlash – umumiy mulkni unda teng yoki turli xil ulushlarga ega bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida qonuniy taqsimlash jarayoni hisoblanib, u ajralish, merosning bo'linishi, tadbirkorlikning tugatilishi va boshqa vaziyatlar kabi turli holatlarda sodir bo'lishi mumkin. Nikohdan ajralish paytida mulkni taqsimlash ajralish jarayonining asosiy jihati hisoblanadi. Odatda umumiy mulkka er-xotinning qaysi birining nomida ro'yxatdan o'tganligidan qat'i nazar, nikoh davomida ortti-

rilgan barcha mol-mulk va majburiyatlar kiradi. Merosga oid ishlarda mol-mulkni bo'lish vasiyatnoma asosida, agar u bo'lmasa, meros qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda merosxo'rlarning ulushlarini aniqlash va mulk huquqini rasmiy o'tkazish uchun barcha kerakli hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish muhimdir.

Tadbirkorlik faoliyatida xo'jalik taqsimoti bo'lingan taqdirda jamiyatning mol-mulki sheriklar o'rtasida ularning ulushlariga va ta'sis hujjatlarida yoki shirkat shartnomasida ko'rsatilgan shartlarga qarab taqsimlanishi mumkin. Mol-mulkni bo'lish tartibi aktivlarning qiymatini baholashni, yuridik maslahat berishni, sudga da'vo berishni va kelishuv bitimlarini tuzishni o'z ichiga olishi mumkin. Jarayon barcha ishtirokchilar uchun to'g'ri hamda adolatli bo'lishini ta'minlashda ko'plab huquqiy jihatlarni hisobga olish muhimdir.

Umuman olganda, oila a'zolarining mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalarning quyidagi xususiyatlari mavjud [12; 13]:

1. Qat'iy belgilangan predmet tarkibi. Ba'zi olimlarning fikricha [14; 15], shartnoma subyektlarining aniq belgilanganligi uning erkinligini sezilarli darajada cheklaydi. Bu esa fuqarolik-huquqiy shartnomalarga xos emas, chunki fuqarolik huquqida faqat ma'lum shaxslar yoki ularning ayrim yaqin guruhlar subyekt bo'la oladigan yagona turdagi shartnomani ajratib ko'rsatish deyarli imkonsizdir.

2. Oila a'zolari tomonidan tuzilgan shartnomalar huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi uchun mustaqil asos bo'lmay, balki murakkab huquqiy tuzilmaning bir qismi hisoblanadi. Biroq bu ular mutlaqo yangi huquq yoki majburiyatlarni vujudga keltira olmasligini anglatmaydi. Misol uchun, nikoh shartnomasida er yoki xotinning biriga qonun bilan berilmagan boshqa turmush o'rtog'ining shaxsiy mulkidan foydalanish huquqi nazarda tutilishi mumkin [16; 17].

3. Oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqlik quyidagi xususiyatga olib ke-

ladi: oiladagi mulkiy munosabatlarni shartnomaviy tartibga solishga oila a'zolarining shaxsiy munosabatlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi va shartnomalarning o'zi qat'iy shaxsiy xususiyatga ega bo'ladi [18]. Oiladagi mulkiy munosabatlar modeli turlicha shakllanishi mumkin. Masalan, bu er-xotinning sheriklik munosabatlari yoki ota-onalik munosabatlari bog'liq bo'lishi mumkin. Oila a'zolari bir-biriga qanchalik moyil va ishonchli yoki ziddiyatli munosabatda ekanligiga qarab farqlanadi. Shaxsiy munosabatlar ko'pincha tuzilgan shartnoma mazmunida o'z aksini topadi.

Oila kodeksiga ko'ra, er va xotin mol-mulking qonuniy rejimini 2 xil shaklda, ya'ni Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra, nikoh shartnomasi asosida hamda Oila kodeksining 27-moddasiga ko'ra, er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv asosida bekor qilish mumkin.

Er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish ikki usulda amalga oshiriladi:

– er-xotinning kelishuviga ko'ra;

– mol-mulkni bo'lishda nizo kelib chiqqan taqdirda sud tartibi (bunda er-xotindan biring, ikkalasining yoki er-xotindan biri kreditoring talabiga ko'ra)da.

Qonun chiqaruvchi bunday kelishuv shakliga talablar qo'ymagan va er-xotingga o'zlarining xohishlari bo'yicha kelishuv shaklini tanlash huquqini beradi. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuv notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin. Amaldagi qonunchilikda bunday kelishuvning mazmuniga oid shartlar belgilanmagan. Er va xotin umumiy mol-mulkni teng bo'lishlari mumkin, shuningdek, ulushlarning tengligi prinsipidan voz kechishlari ham ixtiyoriy. Biroq bunday holatda uchinchi shaxslarning manfaatlari buzilmasligi kerak, aks holda, uchinchi shaxslarning talabiga ko'ra, bunday kelishuv sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mulkiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar

oiladagi mulkiy masalalarni hal etishning muhim vositasi hisoblanadi. Ular er va xotinning aniq huquq va majburiyatlarini belgilashga, nizolarning oldini olishga hamda munosabatlarda huquqiy aniqlikni ta'minlashga yordam beradi. Mazkur shartnomalarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, oila institutini mustahkamlash, uning barcha a'zolari manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuvi nikohdan ajralish holatlarida nikoh paytida birgalikda olingan mol-mulkni taqsimlash to'g'risidagi er va xotin o'rtasidagi kelishuvdir. Bunday bitimlarning asosiy jihati ularning ixtiyoriyligi va tomonlarning o'zaro roziligidir, bu esa har bir tomonning shaxsiy ehtiyojlari hamda manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi. Ushbu kelishuvlar moslashuvchanlikni ta'minlaydi va kim qanday mulkka egalik qilishini aniq belgilaydi, bu kelajakda ko'plab nizolarning oldini oladi. Ular, shuningdek, har ikkala tomonning huquqlarini himoya qiladi, ajralishdan keyin bir tomon zaif moliyaviy ahvolda qoladigan vaziyatning oldini oladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Sudlar tomonidan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 3-sonli qarori 9-bandiga ko'ra, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish haqidagi masalani hal qilishda, basharti ular o'rtasida nikoh shartnomasi tuzilmagan bo'lsa, sudlar Oila kodeksining 5-bobida nazarda tutilgan normalarga rioya etishlari lozim.

Er va xotin o'rtasida notarial tartibda tasdiqlangan nikoh shartnomasi mavjud bo'lgan hollarda mol-mulk nikoh shartnomasida nazarda tutilgan shartlar asosida bo'linadi.

Nikoh shartnomasida umumiy mol-mulkning ayrim turlariga nisbatan birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibi o'zgartirilgan hollarda nikoh shartnomasida ko'rsatilmagan mol-mulk qonunda belgilangan tartibda bo'linadi [19].

Bunda shuni inobatga olish kerakki, Oila kodeksi 31-moddasining beshinchi qismiga ko'ra, nikoh shartnomasining er yoki xotindan birini o'ta noqulay sharoitga solib qo'yadigan (masalan, er-xotindan birini nikoh davrida topilgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqidan batamom mahrum etadigan) shartlari shu er yoki xotin talabi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi va er-xotinning mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv mulkiy munosabatlarni tartibga solishning muhim huquqiy hujjatlari bo'lib xizmat qiladi, lekin ular maqsadi va qo'llanishi bo'yicha sezilarli darajada bir-biridan farqlanadi.

Nikoh shartnomasi nikoh paytida ham, nikoh bekor qilingan taqdirda ham er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida tuziladi. Ushbu shartnoma nikohdan oldin yoki nikoh paytida istalgan vaqtda imzolanishi mumkin. Nikoh shartnomasi odatda mavjud va kelajakdagi mulkka, shuningdek, unga egalik qilish, boshqarish va tasarruf etish huquqiga oid shartlarni o'z ichiga oladi. Oilaviy holat o'zgargan taqdirda, mulkiy munosabatlardagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Nikoh shartnomasi nikoh ro'yxatga olingan paytdan boshlab (agar nikohdan oldin tuzilgan bo'lsa) yoki imzolangan paytdan boshlab (agar nikoh davrida tuzilgan bo'lsa) kuchga kiradi va nikohning butun davri uchun hamda u bekor qilinganidan keyin mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv imzolangan paytdan boshlab yoki shartnomada ko'rsatilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va faqat bo'lish vaqtida amalda bo'lgan mol-mulkni bo'lish tartibini tartibga soladi.

Boshqa tomondan, er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv odatda ajralish paytida yoki undan keyin tuziladi va birgalikda sotib olingan mulk qanday taqsimlanishini belgilovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday shartnoma mavjud aktivlarni,

masalan, ko'chmas mulkni, avtomobillarni va moliyani er va xotin o'rtasida sud aralashuvisiz hamda kelajakdagi mulkiy munosabatlarga ta'sir qilmasdan taqsimlash tartibini belgilaydi.


Ushbu hujjatlar o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat: nikoh shartnomasi hozir va kelajakda mol-mulkdan foydalanish shartlarini taqdim etishi mumkin, er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv esa mavjud aktivlarni taqsimlashga qaratilgan. Nikoh shartnomasi mulkiy munosabatlarning turli jihatlarini, jumladan, qarzlar va moliyaviy majburiyatlarni qamrab oladigan kengroq shartlarni o'z ichiga oladi. Bundan farqli o'laroq, er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv ajralish vaqtida mulkni taqsimlash bilan cheklanadi.

Nikoh shartnomasi, agar u turmush o'rtoqlardan birining yoki voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini buzsa, sudga shikoyat qilinishi mumkin. Er va xotin mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi kelishuv, agar taraf shartnoma bosim, aldash yoki uning huquqlarini buzadigan shartlarda tuzilganligini isbotlasa, sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Yuqoridagi masalalarni har tomonlama tahlil qilish maqsadida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot sotsiologik so'rov usuli 422 nafar turli yosh vakillarini qamrab oldi. Tadqiqotda respondentlarni tanlashda tasodifiy-ehtimoliy tanlash usulidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari aholi uchun rasmiy (qonuniy) nikoh ko'proq ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatdi. Respondentlarning 68,9 foizi "Siz uchun oila qurishda, eng avvalo, qaysi nikoh muhim?" degan savolga rasmiy, FHDY orqali tuzilgan nikohni qayd etishlari aholining huquqiy me'yorlarga ko'proq amal qilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, har to'rtinchi respondent (27,4 foiz) esa shar'iy, islom qoidalarini asosida tuzilgan nikohni ma'qul ko'rishini ijtimoiy hayotda qadriyatlar tizimida tarkibiy o'zgarishlar, diniy me'yorlar salmoqli o'ringa ega bo'la-

yotgani va qadriyatlar transformatsiyasi o'ziga xos ko'rinish hosil qilganini namoyon etadi (1-rasm).



1-rasm. Respondentlarning oila qurishda nikoh turlarining muhimligi to'g'risidagi fikrlari (foiz hisobida)

Olingan natijalar respondentlarning aksariyat qismi nikoh shartnomasi to'g'risida xabardor va to'liqroq ma'lumotga ega ekanligini namoyon etdi. Umuman olganda, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 69,8 foizi nikoh shartnomasi to'g'risida eshitganlarini bildirib o'tishgan, bu borada ayollarning ulushi 71,9 foizni, erkaklarniki esa 66,7 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Respondentlarning nikoh shartnomasi to'g'risida xabardorligi (umumiy va jins kesimida)

Nikoh shartnomasi to'g'risida eshitganmisiz?			
Javob	Erkak	Ayol	Umumiysi
Ha	66,7	71,9	69,8
Yo'q	33,3	28,1	30,2

Aynan nikoh shartnomasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan respondentlarning nikoh shartnomasining mazmun-mohiyati to'g'risida bergan javoblari tahlil qilinganda ayollar erkaklarga nisbatan nikoh shartnomasining mazmunini to'laroq tushunishlari aniqlandi. So'rovda qatnashgan respondentlarning 27,4 foizi nikoh shartnomasi iqtisodiy va mulkiy munosabatlarni, 38,7 foizi ajrashish bo'lgan holatda mulk taqsimotini tartibga solishini qayd etib, berilgan savolga to'g'ri javob bergan. Javoblarning umumiy miqdori

66,1 foizni, bu ko'rsatkich erkaklar va ayollarda mos ravishda 59,5 foiz va 70,3 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, respondentlar orasida nikoh shartnomasini oiladagi vazifalarni taqsimlash va ularni bajarish bilan bog'liq mexanizm sifatida tushunadigan 22,6 foiz kishilar borligi ham qayd etildi. Mazkur toifadagi kishilar erkaklarda 26,2 foiz, ayollarda esa 20,3 foizni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

Respondentlarning nikoh shartnomasining mazmuni to'g'risidagi fikrlari (umumiy va jins kesimida)

Nikoh shartnomasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsangiz, u qanday munosabatlarni tartibga soladi?	Erkak	Ayol	Umu-miy
Iqtisodiy va mulkiy munosabatlar	26,2	28,1	27,4
Farzandlar bilan bog'liq	0	4,7	2,8
Oiladagi nomulkiy munosabatlar	4,8	3,1	3,8
Oiladagi vazifalarni taqsimlash va ularni bajarish bilan bog'liq	26,2	20,3	22,6
Ajrim bo'lgan holatda mulk taqsimoti	33,3	42,2	38,7
Boshqa javob	9,5	1,6	4,7

Tahlillarga ko'ra, oilalar ajrashish holatiga tushib qolganda farzandlar taqdiri, shuningdek, aliment, uy-joy, molk-mulkni taqsimlash singari moddiyliklar kishilarni ko'proq tashvishga soladi.

Oila va nikohning asosiy vazifalaridan biri reproduktiv faoliyatni tartibga solish, nasl qoldirish va avlodlar davomiyligini ta'minlashdan iborat. Olingan natijalar aynan farzandlar hanuz asosiy oilaviy qadriyat sifatida saqlanib qolganini ko'rsatdi. Oilalarda ajrashish holati vujudga kelganida 94,3 foiz respondentlarni farzandlar taqdiri tashvishga

soladi. Ularning 78,3 foizini farzandlar taqdiri to'liq, 16,0 foizini esa qisman tashvishga solishi ayon bo'ldi.

Farzandlar hayoti va taqdiri bilan bog'liq aliment borasida olingan natijalar deyarli 90 foizni tashkil etgan. Bu ajrashishdan keyin mulk bilan bog'liq muammolarni oqilona hal qilish masalasini kun tartibiga qo'yayotgani masala yechimini nafaqat an'anaviy usullar (sudlar orqali), shu bilan birga, yangicha zamonaviy yondashuvlar asosida er-xotin va farzandlarning manfaatlarini inobatga olgan holda topish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ajrim holatida mulkni taqsimlash masalasi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari to'liq va qisman tashvishga solish bilan deyarli teng ulushga ega bo'ldi. 34,0 foiz respondent mulkni asosiy, 34,9 foizi esa ikkilamchi qadriyatlar sifatida qiziqtirishi ajrashish holatida er-xotinni qaysi holatlar qay darajada tashvishga soladi degan savolga berilgan javobda o'z ifodasini topdi. Olingan natijalar tahliliga ko'ra, nikoh shartnomasi tuzishdan asosiy maqsad – oiladagi mulk munosabatlarida paydo bo'ladigan nizolarni hal qilish hisoblanadi.

Umuman olganda, so'rovda ishtirok etganlarning 68,9 foizi tomonidan mulkni taqsimlash asosiy muammo sifatida qayd etilishi yuqorida aytilgan fikrning asosli ekanligidan dalolat beradi. 50,0 foiz respondent uchun ajrashishdan keyin avtomashina mulkning bir qismi sifatida taqsimlanishini muammo sifatida ko'riladi.

Oilaviy ajralishlardan keyin *ayollarning qayta nikohga kirishi va turmush o'rtog'i tomonidan rashk tufayli ta'qib qilinishi* tez-tez kuzatiladi. Tadqiqotda ushbu ikki holat har to'rtinchi respondent uchun nikoh barham topgandan keyingi tashvishli holat ekanligi aniqlandi. Respondentlarning 43,4 foizi ajrashishdan keyin ta'qib qilinish, 41,3 foizi esa rashk tufayli turmush o'rtog'i tomonidan ta'qib qilinishini asosiy muammo sifatida qayd etdi (3-jadval).

3-jadval

Respondentlarning oilaviy ajralishdan keyin tashvishga soladigan holatlar to'g'risidagi fikrlari (foiz hisobida)

Sizningcha, oilalar ajrim holatiga kelib qolganda er-xotinni quyidagi holatlar qay darajada tashvishga soladi?				
	To'liq	Qis-man	Umu-man	Bilma-dim
Uy-joy masalasi	43,4	38,7	10,4	7,5
Farzandlar	78,3	16,0	4,7	0,9
Aliment	28,3	51,9	16,0	3,8
Qayta nikohga kirish	8,5	33,0	34,9	23,6
Avtomashina	13,2	36,8	34,9	15,1
Ajrashgandan keyin ta'qib qilinish	15,1	28,3	33,0	23,6
Mulkni taqsimlash masalasi	34,0	34,9	15,1	16,0

Xulosalar

Hozir amaliyotda oilaviy huquqiy shartnomalarni oilaviy nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida qo'llash yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan omillar tufayli kam ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Oilaviy shartnomalar oilalarga birgalikdagi hayot shartlarini mus-

taqil ravishda belgilash imkonini beradi, shu jumladan, mulkiy huquqlar, bolalarni tarbiyalash va majburiyatlarni taqsimlash kabi masalalarni hal etishda yordamchi vazifasini o'taydi. Ikkinchidan, ajrashishlar sonining ortishi va an'anaviy oila shakllarining o'zgarishi oilaviy munosabatlarda shaffoflik va ravshanlik zarurligini taqozo etadi. Oilaviy shartnomalar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ajrashishlar yoki kelishmovchiliklarni oldindan baholash imkonini berishi mumkin, bu nizolarning adolatli hal etilishini ta'minlaydi.

Nikoh shartnomasi va er-xotin mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi kelishuv orqali mulkiy nizolarni samarali hal etishda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

birinchidan, oila huquqi borasida aholi-ning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini joriy etish;

ikkinchidan, oilaviy shartnomalardan foydalanish uchun ularning sodda va namunaviy shakllarni ishlab chiqish.

Shunday qilib, oilaviy huquqiy shartnomalar oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oila a'zolariga o'z huquq va majburiyatlarini erkin belgilash hamda moslashuvchan, oshkoralikni ta'minlovchi va barcha oila a'zolari-ning manfaatlarini himoya qilishning dolzarb, samarali vositasi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya [Social psychology]. Tashkent, Fan va texnologiya Publ., 2012, p.172.
2. Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi [Management psychology]. Tashkent, Yunaks-Print Publ., 2006, p. 230.
3. Jalilov A.T. Yoshlar bilan ishlash jarayonida nizolarni boshqarish [Conflict management in youth work]. Tashkent, Tafakkur Bustoni Publ., 2018, p. 5.
4. Karimova V., Akramova F., Xonqulova N. Mustahkam oila – mahalla tayanchi [A strong family is the backbone of the makhalla]. Tashkent, National Library of Uzbekistan named after A. Navoi Publ., 2009, pp. 53–56.
5. Yuldashev S. Nizoli oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish [Providing socio-psychological support to families in conflict]. Tashkent, Yoshlar Publ., 2020, p. 68.

6. Yuridicheskaya konfliktologiya [Legal conflictology]. Moscow, 1995, p. 53.
7. The website of the Statistical Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
8. Rabes A.M., Khvatova M.A. Semeynyye spory kak ob"yekt al'ternativnogo uregulirovaniya [Family disputes as an object of alternative resolution]. *Bulletin of Moscow State Regional University. Series: Jurisprudence*, 2020, vol. 4, pp. 123–132. DOI: 10.18384/2310-6794-2020-4-123-132
9. Chashkova S.Yu. Konkurentsiya semeyno-pravovykh dogovorov i mediativnikh soglasheniy, napravlennykh na regulirovaniye semeyno-pravovykh sporov [Competition between family law contracts and mediation agreements aimed at regulating family law disputes]. *Russian law*, 2022, vol. 75, no. 4, pp. 50–62. DOI: 10.17803/1729-5920.2022.185.4.050-062.
10. Maripova S. Oilaviy nizolarda mediatsiya [Mediation in family disputes]. Available at: <https://mediator.uz/mediaciya/928-oilavij-nizolarda-mediaciya.html>
11. Bagrova N.V. Unifikatsiya dogovornogo regulirovaniya imushchestvennykh otnosheniy v sem'ye [Unification of contractual regulation of property relations in the family]. Legal regulation of contractual relations in Russia: problems and development prospects Publ., 2021, pp. 199–209. Available at: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46670574>
12. Bondov S.N. Brachnyy dogovor (kontrakt) po semeynomu pravu Rossii [Marriage agreement (contract) in Russian family law]. Moscow, 1999, p. 77.
13. Nisht T. A. Semeyno-imushchestvennyye sdelki v zakonodatel'stve Rossiyskoy Federatsii [Family property transactions in the legislation of the Russian Federation]. Moscow, 2010, p. 69.
14. Knyazeva Ye.V. Semeyno-pravovoy dogovor kak instrument regulirovaniya imushchestvennykh otnosheniy v semeynom prave [Family law agreement as a tool for regulating property relations in family law]. *Family and Law Publ.*, Moscow, 2005, p. 33.
15. Tarusina N.N., Lushnikov A.M., Lushnikova M.V. Sotsialnyye dogovory v prave [Social contracts in law]. Moscow, 2017, p. 480. Available at: www.consultant.ru
16. Nizamiyeva O.N. Dogovornoye regulirovaniye imushchestvennykh otnosheniy v sem'ye [Contractual regulation of property relations in the family]. Kazan, 2005, pp. 151–161.
17. Lameykina Ye.Yu. Osobennosti osushchestvleniya i zashchity prava sobstvennosti suprugov [Peculiarities of implementation and protection of property rights of spouses]. Krasnodar, 2009, p. 9.
18. Yuldasheva Sh. Baratov M. Nikoh shartnomasi nima? [What is a marriage contract?]. Tashkent, TSIL Publ., 2006. pp. 12–13.
19. Otegenova L.Zh. Brachnyy dogovor po semeynomu zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [The marriage contract according to the family legislation of the Republic of Uzbekistan.]. TSIL Publ., 2012, p. 115. Available at: <https://drive.google.com/file/d/174yDnDr44CDXYafGTyI-lC3fSuYx6YgB/view>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 5-SON

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.